

**G`afur G`ulom ijodida o`zbek bolalarining soddaligi, quvnoqligi, ota-onaning qadriga yetish singari tuyg`ularning kuylanishi**

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Boshlang`ich ta`lim fakulteti Boshlang`ich ta`lim  
yo`nalishi

3-bosqich talabasi

**Abdunazarov Bobur Normurodovich**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada G`afur G`ulom asarlarining bolalar adabiyotida tutgan o`rni haqida bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** G`afur G`ulom hayoti va ijodi, “ Shum bola “ qissasi, “Sog`inish” she`ri, “Mening o`g`rigina bolam” asari.

O`zbek adabiyotining zabardast namoyondalaridan biri G`afur G`ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo`rg`ontegi mahallasida tug`ilgan. Otasi G`ulom Mirza Orif o`g`li, onasi Toshbibi adabiyotshunos, fors tilining bilimdoni. Otasi rus, ozarbayjon, tatar tillarini ham yaxshi bilgan. G`afur G`ulomning ilk she`ri “Go`zalik nimada” nomi ostida chop etilgan. She`riy to`plamlari 1931-yil “Dinamo”, 1932-yilda “Tirik qo`shiqlar” to`plamlarini chop etirgan.

**Nasriy asarlari:** 1930-yilda “Netay”, 1934-yilda “Tirilgan murtda”, 1936-yilda “Shum bola” va “Yodgor nomli” nasriy asrlari yaratilgan. Urush yillarida shoirning “Kuzatish”, “Sog`inish”, “Qish”, “Xotin”, “Bizning ko`chada ham bayram bo`lajak”, “Suva va nur” singari asarlarini yozgan. Uning o`ynab kuladigan baxtli kunlari, bolalik chog`lari Birinchi jahon urushi davriga to`g`ri keladi. Ota-onasida yosh yetim qilgan G`afur G`ulom boshiga ko`p tashvishlar tushadi. Oilada to`rtta farzand bo`lib, otasi ularga bosh qilib G`ofurni tayinlab ketadi. Bo`lg`usi adib musibatga to`la kunlarni boshdan kechiradi. Bolalaik tassavurida bu qiyinchiliklar, uning xotirasida muhirlanib qoladi.

Adib 1936-yilda o`tmish hodisalarini xayolida qayta jonlantiradi va o`zining “Shum bola” nomli qissasini yaratadi. Bu qissa o`tgan asrning 60- yillarga to`g`ri kelib, hozirgi mukamall holiga keltiriladi. Yana bir adibimiz, o`zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, Said Ahmad o`zining “Yoqotganlarim va topganlarim” kitopida quyidagi jumalarni keltirib o`tadi: “Sum bola” ning uchinchi qismi yozilayotganda men G`afur akaning yonida edim. Meni G`ofur akani uyiga qissani tezroq yozdirish uchun “Mushtumdan” yuborishgan edi “.

“Shum bola” qissasining bosh qahramoni, og`ir kunlarda otasidan ayrilgan 14 yoshli bolakay. U yerga ura ko`kka sapchiydigan, bir joyda uzoq qolib ketsa yuragi siqiladigan, tinib-tinchimas bolalardan edi. Kunlarning birida, u onasini xafa qilib qo`yganidan xijolat bo`lib, pul topish ilinjida yo`lga tushadi. Toshkent atrofidagi sarguzashtlari yarim yildan ortiq davom etadi. Pochhasi avaylab boqayotgan qushlarga suzma berib harom o`ldirib qo`yadi. Do`sti Omonga qo`shilib, Sulton o`g`ri boshchiligida kun o`tkazadi. Ko`chmanchilar ovulida o`lik yuvib sharmanda bo`lishadi. Masjid imomining og`ilxonasidagi o`salab qolgan ho`kiz o`rniga, soppa-sog` eshakni so`yib rosa kaltak yeydi. U qayerga bormasin, hamma joyda kattalarni o`ziga bepisand qarashi, qo`pol muomalaga duch keladi. Xudoni tilga oladigan, ikkiyuzlamachi Eshon uni oyoq-qo`li epchilgina yigit deb maqtaydi. Qussada Shum bolaning Sariboydek xasis kimsani dodini beradi. Xoh yaxshi gap, xoh yomon gap bo`lsin, Sariboy nuqul “inankeyin” deyishi odamni xit qilib yuboradi, lekin Shum bola Sariboyni bu gapi bilan oson mot qiladi. Don-don sopli pichoqni sinishi bilan boshlangan gap, o`g`li Bo`riboyning terakdan yiqilib

o`lishi bilan tugaydi. O`rtancha qizi esa, dunyoga arzidigan tug`ganini, chaqaloq esa Badal aravakashga quyib qo`ygandek o`xshashi to`g`risidagi yolg`on gaplar, boyni yiqitadi. Bu qissada "Shum bola"ning har qanday qiyin vaziyatdan, sog`-omon chiqib ketishiga amin bo`lamiz. G`afur G`ulomning "Sog`inish" she`ri 1942-yilda yozilgan bo`lib, unda "o`zbek otasi" degan obrazga duch kelishimiz mumkin. Ota yolg`iz o`g`lining urushdan qaytib kelishini intizorlik bilan kutadi. Otaning yuragi guppillab urib turadi. Atrofga har kuni yuzlab kelayotgan qora xat kelayotgan tahlikali yillarda, ota o`z o`g`lidan xavotirda bo`ladi.

"Sog`inish" she`rining lirik qahramoni, otaning sog`inchi shunchalar zo`rki, hamma narsadan umidlanadi. Najot so`rab hatto, quyoshga qarab zorlanadi. Ota sog`inch o`rtagan paytlarda Bedilni o`qiydi. Asli turkiylardan bo`lgan fors shoiri, Bedil she`riyati, o`zining falsafiy chuqurligi, o`quvchini o`tkinchi dunyo g`am- tashvishlaridan yuqoriroq fikr yuritishga undaydi. Bedilning otaga bergan daldasi, yupanchi ya`ni xayolotlarini chashmadek tindiradi. Urushning tugashiga hali uch yil bor edi. 1945-yilning may oyida, urushdan tirik qolgan jangchilar shaftoli pishig`ida uyiga qayta boshlaganlar.

"Sog`inish" she`ri insoniyat badiiy taffakurining eng yuksak cho`qilarida turishgaarzigulik, o`zida eng pokiza insoniy xislatlarni mujassam etgan badiiy asar hisoblanadi.

G`afur G`ulomning "Mening o`g`rigina bolam" hikoyasida ota-onasidan erta yetim qolgan to`rt bolaning yoshligida boshidan kechirgan musibatlarini kitobxonlarga to`la- to`kis yetkazib berilgan. Ushbu hikoya nafaqat to`rt bola, balkim, o`sha davr bolalarning ota-onasidan erta yetim qolgan bolalar, urushning asorati va jamiyatdagi kamchiliklarni badiiy asar orqali yetkazib berilgan. 1865- yil Qo`qon xonligining taslim bo`lishi bilan Turkiston o`lkasining to`liq Chor Rossiyasiga qaram bo`lib qolishi, shuningdek o`lkaning tomonidan idora qilinardi. Keyinchalik esa, 1914-yil Birinchi jahon urushining boshlanishi qiynalib kelgan xalqning ahvolini yanada qiyinlashtirdi. "Mening o`g`rigina bolam" hikoyasida esa ushbu voqealar haqida bayon etilgan. Shu sababli bu hikoya (asar), "Voqeiy hikoya" deb nomlangan. Bu asarning bunday nomlanishi ham bejiz emas, chunki, bu davr insonlarining ahvoli og`ir edi. Yaqinlaridan ayrilgan bolalarning yeyishga hech narsasi yo`q edi. Bu hikoyada keltirilgan "qora buvi" yoki "o`g`rigina bola" qahromlari orqali barcha bolalar ahvoli tasvirlangan.

Zero, shular urush asoratlarni, qiyinchiliklarini, urushning tirik qurbonlarini o`quvchilarga yetkaza oldi. Ushbu hikoyada kelgan quyidagi jumlarga e`tibor qarataylik: "Buni qarang-a, bizning uyimizga o`g`ri kepti. Bizni ham odam deb yo`qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda...". Ushbu jumla orqali davr asoratidan yuzaga kelgan kamchiliklar, ma`naviy kamchiliklar, urushning asoratlari va urush natijasida halok insonlar taqdiri olingan. Bolalarning ota- onalari va qarindoshlarini intizorlik bilan kutishi singari hissiyotlari keltirilgan. Xalqning boshiga tushgan ko`rguliklarni, o`z hayoti misolida ham totib ko`rgan, yurtdoshlari dardiga sherik bo`lgan G`afur G`ulom "O`g`rigina bola" ga achinmasligi, uning taqdiriga befarq qarashi mumkin emas edi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytamanki, G`afur G`ulomning barcha asarlarida, qiyinchilik, hayot tashvishlari tasvirlangan. Quyida yozib o`tgan asarlarimizda, o`zbek bolalarining soddaligi, sho`xligi, har qanday qiyinchiliklardan oson yengib o`tishi, ota-onaning qadriga yetishi. Ota-onaning farzandi uchun mehr-muhabbati va zamon qiyinchiliklari tasvirlangan. Ushbu davrni hozirgi zamon bilan taqqoslaydigan bo`lsak. Biz musofirda yurgan bo`lsak ham, ota-onamizning bizga bo`lgan mehr-muhabbati, ishonchi, ko`magi, qiyinchiliklarimizga yordam berishi, tushkun vaqtimizda hamddard bo`lishi, uyda o`tirgan holatda ham qayg` urushu, bizning yo`limizga jonsarak bo`lishi G`afur G`ulomning har bir asarida gavdalanirilgan. Har bir farzand ota-onasining qadriga yetishi, ularning ishonchini

qozonishi, har bir gapiga diqqat bilan quloq solishi lozim. Zero, bizga hech kim ota-onamizdek bola olmayd. Shu sababli biz farzandlar ota-onamiz va yaqinlarimizning borida qadriga yetmog`ligimiz lozim.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Muminova, U. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN, 2776-0979.
2. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.
3. Ra'no C., Karshiyevna M. U. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 117-120.
4. Muminova U. K. PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-50.
5. Qarshiyevna M. U. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.
6. Qarshiyevna, Umida Muminova. "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni." (2023): 332-335.
7. Davlatmamatovna H. G., Karshiyevna M. U. STUDYING THE SOCIAL, EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SCIENTIFIC AND POPULAR ARTICLES IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 03. – C. 46-52.
8. Ochildieva G., Karshiyevna M. U. METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. – 2023.